

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-280-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

<i>Туляганов Фатхулло, Арифджанов Алишер</i> АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПРИНЦИПОВ СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА	5-10
<i>Мамарасулов Хасан, Арифжанов Алишер, Туляганов Фатхулло</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЕДИНСТВА ИЗМЕРЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	11-18
<i>Agzamov Mirxosil, Nosirov Xasanbek, Xikmatullayev Rustam, Abdusalomov Zafar, Ismoilov Muxammadismoil</i> PAHTA HOM-ASHYOSINI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIK MASHINALARNING TAHLILI	19-23
<i>Muhitdinova Umida, Turdibayeva Dildora, Xalilov Oybek, Muminxodjayev Sunnatilla</i> SIRT G'ADIR-BUDURLIGI NAMUNALARI: TURLARI, QO'LLANILISHI HAMDA ASOSIY PARAMETRLARI	24-29
<i>Muminxodjayev Sunnatilla, Hakimova Nargiza, Rakhimova Sevara, Muhitdinova Umida</i> KO'CHMA LABORATORIYA YARATISH: AHAMIYATI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI	30-32

TARIX FANLARI

<i>Raimjonov Ziyoxiddin</i> AVESTO QADRIYATLARINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	33-35
<i>Mamajanov Azizbek</i> ANDIJON DENGIZI YOXUD ANDIJON SUV OMBORI TARIXI	36-39
<i>Baxranov Sherzod</i> SOVET ITTFOQI DAVRIDA BOSHOQLI EKNLARNI TADQIQ ETISH TARIXIDAN.....	40-43
<i>Meliboyeva Munisabonu</i> MILODDAN AVVALGI II-I ASRLARDA IPAK YO'LI BO'YLAB ELITA QABR INSHOOTLARIDA ME'MORIY VA MADANIY SINTEZ	44-47

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Hakimova Yulduz</i> TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGIDA USTUVORLIKKA EGA MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA BU YO'NALISHLARDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR	48-53
---	-------

FALSAFA FANLARI

<i>Abdulhayev Azizbek</i> HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'OYANING RO'LI	54-58
<i>Xo'jayev Davron</i> O'RTA ASRLAR SHARQ RENESSANSIDA GUMANIZIM FALSAFASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	59-63

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Sadullayeva Muxlisa</i> ADABIYOTDA BADIY KONFLIKT SHAKLLARI.....	64-68
--	-------

<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA RUHIY EVRILISH.....	69-72
Мамарасулов Умиджон ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ОРИГИНАЛА ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	73-81
<i>Мамарасулов Умиджон</i> ТИПОЛОГИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	82-89
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jo'rayeva Madinaxon</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ILM-FANNI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR	90-91
ARXITEKTURA FANLARI	
<i>Mustafayeva Madina</i> ZAMONAVIY ARXITEKTURADAGI ERGONOMIK DIZAYNNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	92-95

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA RUHIY EVRILISH

Yusufova Farangiz

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. ushbu maqolada Halima Xudoyberdiyevaning ijodidagi ichki holat jarayoni lirik qahramon orqali o'zini anglash, ma'naviy yuksalish, qalb uygonishi kabi tushunchalar ruhiy evrilish ba'zan metamorfoz orqali ochib berish tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Ruhiy barkamollik, evrilish, she'riyat, uyg'onish, Halima Xudoyberdiyeva, metamorfoza.

SPIRITUAL EVOLUTION IN THE WORK OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

Yusufova Farangiz

Master's student at Sharof Rashidov Samarkand State University

Annotation. this article analyzes the process of inner experience in Halima Khudoyberdiyeva's literary work through the lyrical persona, focusing on themes such as self-realization, inner elevation, and awakening of the soul- all of which are expressed through the concept of spiritual transformation sometimes through metamorphosis.

Key words: Spiritual perfection, transformation, poetry, awakening, Halima Khudoyberdiyeva, metamorphosis.

Inson yaralibdiki, o'zining bu dunyoga nima uchun kelganligini, asosiy vazifasi nimadan iborat ekanligini bilishga intiladi, bu hayot yo'lida umrgo'zarolik qilar ekan, inson zotining "oltin boshi" taqdirning zarbalariga ham uriladi, hayotning bergan yaxshi va yomon sinovlariga ham ko'nikadi, nimaga unda aynan shunday sodir bo'layotganligini tafakkur qiladi, lekin baribir ong ostida yana o'sha savolga ya'ni yaratilishining sababiga javob izlaydi. Bu borada g'arb-u sharqning qarashlari albatta bitta nuqtada kesishadi. INSON MUKARRAMdir. "Alloh maxfiy bir xazina edi U tanilish, bilinish uchun olamni va undagilarni yaratdi ("Kuntu kanzan maxfiyan"). O'sha maxfiy xazinani saqlash ma'suliyatini insondan bo'lak mahuqotlar o'z zimmlariga olishga jur'at etolmadilar. Bu oliy maqom vazifani Inson o'z ma'suliyatiga oldi. Alloh oldida Insonning rutbasi, maqomi barcha mavjudotlarnikidan baland bo'ldi"[1,8] demak insonning asosiy vazifasi kamolotga yetish, ruhiy o'zgarish taqdir chiqargan har qanday hukmlarga shunchaki rozi bo'lmasdan shu jarayon orqali ruhiy uyg'onishga muvaffaq bo'lish va ana shu maxfiy xazinani topishdan iboratdir Bu xususda "ko'p va xo'b" yozilgan jumladan bu haqda Dantedan Ovidiygacha Koelodan tortib Dostoyevskiygacha insonning ruhiy uyg'onish jaroyoni haqida bong urgan bo'lsalar sharqda Jaloliddin Rumiyan Alisher Navoiygacha YARATGAN ZOT,OLAM va ODAM to'grisida durdona asarlar yaratdi.

Insonning ruhiy kechinmalari hamda uning o'zgarish jarayoni ya'ni evolyutsiyasi haqidagi fikrlar kuchaysa kuchaydiki kamaymadi, mana shunday barkamollik ruhi bilan ijod qilgan Yaratganni Odam va Olamni tafakkur qila olgan shoir Halima Xudoyberdiyevadir. Shoiraning lirikasiga e'tibor qaratar ekanmiz, unda yuqoridagi abadiyotga daxldor bo'lgan mavzular haqida qalam tebratdi. Shoiraning ruhiy yetuklikka yetishi uning asarlarida ham o'z isbotini topganki, bu xuddi metamorfozga o'xshaydi Metamorfoza yunoncha: metamorphos so'zidan olingan bo'lib bir holatdan ikkinchi holatga o'tish, hissiy uyg'onish ruhiy yetuklikka

yetish kabi adabiy ma'nolariga ega bo'lib, badiiy asarda qahramon o'zini tahlil qilishi yoki o'z menini anglashi orqali ruhiy evrilish jarayonini boshdan kechiradi. Metarmorfoz haqidagi ilk asarni Rim shoiri Ovidiy yaratgan bo'lib, U "Metamorfozalar" deb nomlanadi. Bu tushuncha badiiy adabiyotda keng qo'llanilib lirik qahramonning ichki yoki tashqi o'zgarishi bilan bog'liq. Metamorfozaning belgilarini shoironing quyidagi she'rida sezish mumkin.

Sarg'ayaman, qaddu belim dol qilaman men,
Azoblarda umrimni uvol qilaman men.
Yaralangan tik arslonning shiddati bilan,
So'z mulkini bir kuni ishg'ol qilaman men. [2,667]

Lirik qahramon shoironing o'zidir. Lirik qahramon hayot taqdim qilayotgan turli azob-uqubatlarni tan oladi, qabul qiladi ehtimol bu sinovlar uning qaddini buklab qo'yar, lekin shoirada ichki ustunlik bo'lganligi sababli u tik tura oladi chunki uning vujudida alanga olayotgan kuch ya'ni Yaratgan zot unga so'z mulkini in'om qilganini chuqur anglaydi hamda shu sabab uni yiqilishiga yo'l qo'ymaydi aksincha u shiddatli kuch bilan so'z mulkini ishg'ol qiladi bunga qat'iy qaror qilgandek go'yo. Shoirda ichki o'zgarish sodir bo'lmoqda. So'zning muqaddasligi unga kuch bag'ishlaydi chunki so'z qudratli quroldir bu haqda Alisher Navoiy ham Xamsaning birinchi dostoni bo'lmish "Hayrat-ul abror" da shunday deydi

Dona-vu dur so'zni afsona bil
So'zni jahon bahrida durdona bil [3,60]

Navoiy so'z qadrini yuksak baholaydi, so'z mulki Alloh tomonidan insoniyatga berilgan ne'matligini dostonida eslatadi, buni esa shoira chuqur his qilgan holda "so'z mulkini bir kun ishg'ol qilaman men" deya hissiy uyg'onish darjasiga yetadi. Chuqur o'zini anglash va qayta uyg'nish holatini ushbu to'rtligida ham kuzatish mumkin:

Menda turkning dashtlarining erk shamoliman,
Dasht otiday metin tuyoq, bo'ron yolliman
Menda turkning boshi, ko'ksi osmon, oyogi-
Uzangida ketadigan tik ayoliman [2,683]

"Tarixda "turk" so'zi bir qavmga mansub ko'plab xalqlarning umumiy nomi sifatida shakllandi Xitoy manbalarida "Turk" so'zi turonliklar, turklar ma'nolarida qo'llanilgan. Bu so'z ot ma'nosida kelsa "kuch quvvat" sifat ma'nosida kelsa "kuch quvvatli" ma'nosini bergan. Bundan tashqari, u "yetuk", "bilimdon", "dono" kabi tushunchalarni ham ifodalaydi"[4,7] Shoira avvalgi she'rida hayotning azoblarini tilga olgan bo'lsa bu she'rda TURKning erkin esib yurgan shamoliga aylanishi va o'zini dashtlarda kezib yurgan metin baquvvat tuyoqli bo'ron yolliga o'xshatishi Shoira ichki barkamollikning yuqori chuqqisiga yetganini va o'zini tarixini biluvchi, ajdodlari kim ekanligini faxr bilan baralla ayta olgan Ayolga aylanib boradi. U shunday ayolki ko'ksi tik qaddi baland uzangida ketadigan ayol obrazidir.

Shoir bu she'rlari bilan ichki transformatsiyaga o'tayotganligini sezish qiyin emas. Ijodkorning hayot yo'lidagi orzu-umidlari, mashaqqatlari va tajribalari hayotni anglashdagi to'g'ri deb bilgan haqiqatlari albatta, uning ijodida asarlarida ham o'z aksini topadi, shunday ekan dunyoni idrok etish uyg'onish pallasi uning she'rlarida ko'rinib turibdi. Bu holatni ruhiy poklanish sifatida ham qabul qilsa bo'ladi

Dilni chirkin hoy-u xaslardan bo'shat,
Harom do'st-u, harom dastlardan bo'shat.

Past-nokaslar o`rab borar girdobday,

Yuksak, uzil, o`zni pastlardan o`zni pastlardan bo`shat! [2,699]

Halima Xudoyberdiyeva bu to`rtligida inson ruhiy poklanishi uchun qalbni barcha narsadan bo`shatish kerakligini eslatmoqda. Ahloqiy komillikka yetishish uchun atrofdagi kirliklardan tozalanishga chaqirmoqda o`zini hamma narsadan bo`shatib komillik sari qadam qo`yishga chaqirmoqda. Demak shoira o`zining axloqiy prinsiplari nuqtai nazaridan ruhiy evrilish darajasiga yetib kelgan uning yana bir she`rida

Nolam uzun. Nola meni suysa kerak,

Umrin bo`yi u ko`ksimni o`ysa kerak.

Menga ta`rif kerak ersa, tarixchilar

“Bir nolali nay” deb yozib qo`ysa kerak. [2,710]

Marjon ipiga tizilgandek ko`ngilga jo bo`ladigan bu so`zlar Halima Xudoyberdiyevaning qanchalik Jaloliddin Rumiyan ilhom olganini payqash qiyin emas:

Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay

Ayriliqlardan shikoyat aylagay.

“Nay” istilohidan muddao, yani zoti sharif Mavlono Jaloliddin Rumiya ko`zlagan maqsad orif va oqillik martabasiga noil bo`lgan insoni komildir. Bu komil insonning og`zidan hamisha oshiqona, lazzatbaxsh va serma`no so`zlar zuhur etadi” “Baytning quyi-ikkinchi: Ayriliqlardan shikoyat aylagay” misrasining mazmuni quyidagicha: orif yoxud komil inson ruhoni dunyodan(ya`ni asl vatanidan, uning mangu va barqaror ruhi xali bu foni olamga inmagan chog`dagi makonidan”) judo bo`lgandan so`ng aziyatlar va yozug`lar to`la zaminga tushganidan achchiq shikoyat qiladi” [5,22] mazkur baytdan ilhom olgan shoira o`z baytlarida ham nay detalini yaratib ichki ruhoni olamini taftish qiladi, lirik qahramonning dard-u hasrati ko`p, lekin bu hasratlar dunyoviy ishlar bilan bog`liq emas shoira ma`naviy yetuklikka yetgan umr komillikka yetishish yo`lida u. Keyingi misrada agar ta`riflash kerak bo`lsa “ bir nolali nay” deb ta`riflasin deydi. Demak yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, nay bu shunchaki oddiy ramziy detal emas balki orif va oqillik martabasiga yetishgan komil axloqli insondir. Halima Xudoyberdiyeva o`z lirikasida Inson deb atalmish MUKARRAM o`z hayot yo`lida ma`naviy yetuklik sari uyg`onishi, intilishi zarurligini ruhoni yuksaklikka bo`y cho`zishi darkorligini she`rlarida aks ettiradi.

Xullas, boshqa ijodkorlarda bo`lgani kabi Halima Xudoyberdiyeva she`rlarida ruhiy evrilishni sezish mumkin. Bu qisman metamorfozaga ham o`xshaydi ba`zan shoira to`rtliklarida bu o`zgarishlar bir holatdan ikkinchi holatga o`tgan bo`lsa, masalan, ma`naviy kamolot cho`qqisiga chiqish, ba`zan mohiyatan va shaklan bir narsaga o`tish holatini yuzaga chiqargan bu aynan o`zini “ turk shamoli” yoki “nay” ga o`xshatishi kabidir

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jaloliddin Rumiya “Ma`naviy masnaviy”, Odil Ikrom tarjimasi G`afur G`ulom nomidagi nashriyot Toshkent-2021 8-bet.
2. Halima Xudoyberdiyeva “Buyuk qushlar” to`plam O`zbekiston-2012 667,683, 699, 710-betlar.
3. Alisher Navoiy “Hayrat-ul abror” G`afur G`ulom nomidagi nashriyot Toshkent-2020 60-bet.

4. Abdurashid Abdurahmonov “Turkiy adabiyotning qadimgi davri” Yangi asr avlodi-2005 7-bet
5. Jaloliddin Rumiy “Ma`naviy masnaviy” kulliyot “Sharq” nashriyoti Toshkent-1999-yil 22-bet

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 11-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.